
XALQARO NOGIRONLAR KUNI MUNOSABATI BILAN TADBIR TASHKIL ETILDI

Mamlakatimizda nogironligi bo'lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to'laqonli a'zosi ekanliklarini ko'rsatish maqsadida turli tadbir va islohotlar amalga oshirilayotgani, buni muhtaram Prezidentimiz tomonidan «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonning imzolangan misolida ham ko'rish mumkin.

Sana munosabati bilan Toshloq tumanida ham tadbirlar o'tkazilmoqda. Bayram tadbirlarida nogironligi bo'lgan shaxslarga yuksak e'tibor va hurmat ko'rsatilmoqda.

Bugun tumandagi 15-ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari uchun bayram tadbiri o'tkazildi. Tadbirda tuman hokimi Abduqaxxor Djurabayev hamda tuman prokurori Axrorjon Xudoyberganovlar qatnashdi. Tuman hokimi so'nggi yillarda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan fuqarolarga ko'rsatilayotgan g'amxo'rliklar ularning hayotdan rozi bo'lib yashashi uchun xizmat qilayotganini alohida ta'kidlab, shu maqsadda uy-joylar, turli rehabilitasiya texnik vositalari bilan ta'minlanayotgani, bepul tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, moddiy-ma'naviy qo'llab-quvvatlanayotganini aytib o'tdi.

Ushbu maskanda bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilib, tarbiyalanayotgan bolalarga barcha shart - sharoitlar yaratib berilmoqda,-deydi muassasa direktori Kamolatxon Tursunova. - Muassasamizda nutqida nuqsoni bor, zaif eshituvchi, tayanch harakat a'zosida nuqsoni bo'lgan bolalar tarbiya oladilar. Bolajonlar uchun guruhlarda, hususan, yotoqxonada, mashg'ulot xonalarida hamda oshxonada barcha shart-sharoitlar yaratib berilgan.

2022-12-02 18:26:19